

**THE GENESIS OF RADIO COMMUNICATION IN ENGLISH,
RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES, AS WELL AS THEIR
LINGUOCULTURAL ASPECTS**

Behzod YUNUSOV
Oliy toifali o'qituvchi
PhD erkin tadqiqotchi

In this article the author will talk about linguoculturological functions of radio communication in English, Uzbek and Russian languages. Besides the author pays attention to lexical structures and phraseology in radio communication. Also some interesting facts about linguoculturologic functions of radio communication will be talked about.

Keywords: linguoculturology, radio communication, communication, radio station, on air, media, research, radio program, phraseology, vocabulary, irony, stylistics, semantics, language game, radio text, precedent, modification, media text, expressive, phatic.

**ГЕНЕЗИС РАДИОКОММУНИКАЦИИ В АНГЛИЙСКОМ,
РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ, А ТАКЖЕ ИХ
ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ**

В этой статье пойдёт речь о лингвокультурологических свойствах радиокommunikации в английском, русском и узбекских языках. Кроме того, автор обращает внимание на лексику и фразеологию в радиокommunikации. Также будут обсуждаться некоторые интересные факты о лингвокультурных функциях радиокommunikации.

Ключевые слова: Лингвокультурология, радиокommunikация, коммуникация, радиостанция, в эфире, медиа, исследование, радиопрограмма, фразеология, ирония, стилистика, семантика, языковая игра, радиотекст, прецедент, модификация, медиатекст, экспрессивный, фатический.

**INGLIZ, O'ZBEK VA RUS TILLARIDA RADIOMULOQOTNING
GENEZISI HAMDA LINVOMADANIY JIHATLARI**

Mazkur maqolada ingliz, o'zbek va rus tillarida radiomuloqotning linvomadaniy jihatlari haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari, muallif radiomuloqotda qo'llaniladigan leksika va frazeologiyasiga alohida e'tibor qaratadi. Radioaloqadagi linvomadaniy jihatlari haqida ba'zi qiziqarli faktlar haqida ham so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: linvomadaniyat, radioaloqa, komunikatsiya, radioeshittirish, radiostantsiya, efir, ommaviy axborot vositalari, tadqiqot, radiodastur, frazeologiya, leksika, kinoya, stilistika, semantika, til o'yini, radiomatn, pretsedent, modifikatsiya, mediamatn, ekspressiv, fatik.

Ushbu tadqiqotning actualigi shundaki, radioeshittirishning zamonaviy rivojlanishida qo‘llaniladigan o‘g‘zaki diskursga tilshunoslikda kam e‘tibor qaratilgan. Hamda, radiomuloqot bo‘yicha ish olib borayotgan dissertant bu sohada ilmiy ish topib olish maqsadida ko‘p qiyinchiliklarga yuzlanadi. Bir vaqtni o‘zida bu soha ilmiy ish olib borish uchun har doim aktual bo‘lib qolmoqda. Internet-radioeshittirish, bu faqat an‘anaviy radioni yangi ko‘rinishi bo‘lib qolmay, balki u rivojlanishni kuchli davrini boshidan kechirmoqda. Chunki an‘anaviy radioeshittirish ovozi o‘ziga xosligi tufayli, har doim jamoatchilik fikriga katta va kuchli ta‘sir kuchiga ega bo‘lgan.

Shunday qilib, mazkur tadqiqotning dolzarbligi, o‘rganilayotgan hodisaning ko‘lami va ahamiyati, o‘rganilayotgan ob‘yektning yangiligi sababli ushbu sohada ilmiy ishlarning yetishmasligi, shuningdek, uning hozirgi bosqichdagi ijtimoiy rivojlanishda nazariy va amaliy ahamiyati bilan belgilanadi.

Ingliz tilidagi ilmiy adabiyotlarda XX asrning 90- yillarida paydo bo‘lib, “mediamatn” termini xalqaro ilmiy doiralarda, hamda milliy media diskurslarda keng tarqaldi. Mediamatn kontsepsiyasini ilmiy ongda tez ravishda o‘rnab qolishi, bu tadqiqotchilar tomonidan mediamatn muammolariga o‘tib borayotgan qiziqishiga bog‘liq.

Teun van Deyk, Mirtin Montgomery, Alan Bell, Norman Ferklafl, Robert Fauler¹ kabi mashhur olimlar mazkur problematikaga katta e‘tibor qaratishgan. Ular ommaviy axborot matnlarini turli xil maktab va yo‘nalishlar nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda o‘rganib chiqdilar: sotsiologiya, funksional stilistika (uslubiyat), diskurs nazariyasi, kontent tahlil, kognitiv tilshunoslik, ritorik tanqid. Olimlarni e‘tiborini keng ko‘lamli muammolar tortib kelmoqdalar. Bular: OAV tilini funksional-uslubiy statusini aniqlash, hamda xar xil turdagi mediamatnlarni tasvirlash usullari, medianutqaga ijtimoiy-madaniy omillarni tasiri, va tasirni lingvomedial texnologiyalari.

Rossiyada mediamatn nazariyasini rivojlanishiga va shakllanishiga S.I.Bernshteyn, D.N.Shmelev, V.G.kostomarov, Yu.V.Rojdestvenskiy, G.Ya.Solganin, S.I.Treskova, I.P.lisakova, B.V.Krivenko, A.N.Vasilyeva²kabi olimlar sezilarli hissa qo‘shdilar.

Ingliz radiokomunikatsiyasining lingvomadaniy jihatlariga kelsak, ular til, madaniyat va aloqa o‘rtasidagi bir nechta asosiy jihatlarini ajratishga katta e‘tibor berishadi. E‘tiborni quyidagi jihatlariga qaratsak:

1. Axborot tarqatish. Radio, yangiliklarni uzatish, ta‘lim mazmuni va ommaviy e‘lonlar uchun hayotiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ingliz tili, dunyo tili hisoblanib, turli tinglovchilarga ma‘lumotlarga kirish uchun imkon tug‘diradi;

2. tinglovchilarga turli madaniy istiqbollarni, musiqani va hikoyanavislikni tanishtiradi va madaniyatlararo tushunchani kuchaytiradi;

3. Jamiyat qurilishi. Ingliz radiosi tinglovchilar o‘rtasida jamiyat hissini

tarbiyalaydi. U mahalliy muammolar bo'yicha bahslar uchun platforma taminlaydi, umumiy identifikatsiya va kollektiv tajriba yaratishga yordam beradi;

4. Til rivojlanishi. Radiomuloqot ingliz tilida til o'rganishga va tajribakorlikka ancha qo'l kelishi mumkin. Ta'lim dasturlari va til kurslari ingliz tili ona tilisi bo'lmaganlarga til o'rganish ko'nikmalarini yahshilashga ancha qo'l keladi;

5. Ko'ngil ochish va mashg'ulotlar Musiqa, komediya va drama radioeshittirishlari lingvistik ijodkorlikni namoyish etish bilan birgalikda tinglovchilarni ko'ngil ochar mashg'ulotlarga qiziqtirishga xizmat qiladi. Qiziqarli kontent, madaniy trendlarga ta'sir qiladigan, ijtimoiy normalarni va qadriyatlarini aks ettiradi;

6. Siyosiy va ijtimoiy sharh. Radio siyosiy nutq va ijtimoiy muammolar uchun forum sifatida xizmat qiladi. Dasturlar, jamoatchilik fikri va himoya qilishga hissa qo'shadigan ijtimoiy meyorlarni kuchaytirishi yoki da'vat etishi mumkin;

7. Global ulanish. Ingliz radiosi dunyoni turli qismlaridan tinglovchilarni bog'laydi hamda ular o'rtasidagi dialogni osonlashtiradi va fikrlar almashuvini tezlashtiradi. Ushbu global ta'sir xalqaro aloqa vositasi sifatida ingliz tilini ro'liga etiborni jalb etadi;

8. Identifikatsiya va taqdim etish. Radio, turli xil ovozlari va nuqtai nazarlarni inkor etmasdan, har xil ijtimoiy guruhlarni taqdim etilishini taminlay oladi[1].

Bunday taqdim etish tinglovchilarning identifikatsiya va tegishlilik hissiga ta'sir ko'rsata oladi;

Yuqoridagi bu jihatlar orqali ingliz radioaloqasi faqat ma'lumot berib qolmay, ammo madaniy hikoyalarni ham shakllantiradi, jamiyatni tarbiyalaydi, til ko'nikmalarini oshiradi. Ushbu hammasi zamonaviy lingvistik manzarada buni muhim vositaga aylantiradi.

Albatta, birinchi navbatta, O'zbekistonda radio eshittirish haqida gapirganimizda quyidagi savollar paydo bo'ladi. Bular: Yurtimizda radio eshittirishlar qachondan boshlangan? Yoki, dastlabki radio eshittirish qancha vaqt davom etgan va unda nimalar efirga uzatilgan? Hamda, O'zbekistondagi ilk radiosuhandon kim bo'lgan?

Yuqoridagi savollarga javob berishdan oldin, shuni aytib o'tish joizki, 13-fevral-YUNESKOning 2011 yil oktabrida bo'lib o'tgan bosh konferentsiyasida 'Butunjaxon radio kuni deb tan olingan. Xuddi shu kunda 1946 yilda BMT bosh qarorgohida shu tashkilotning radiosiga asos solingan. Radioning o'sha paytdagi qanchalik dolzarb bo'lganiga shu ma'lumotlarni o'rganib chiqib guvoh bo'lamiz.

Birinchi radiostantsiya Toshkent shahrida 1915 yilda ishga tushirilgan. Ushbu 1-sonli radiostantsiyaning qurilishi 1911 yilda boshlanib, sal kam to'rt yilda bitkazilgan. Bu ulug' ishni amalga oshirish uchun 6 dona antenna minoralar kompleksi va boshqa anjomlar Germaniyaning "Simens" kompaniyasi tomonidan keltirilgan va qurilgan. Manbalarga ko'ra, birinchi radiogramma shu radiostantsiya yordamida olingan bo'lib,

u Moskvadan Toshkentga poyezd yo‘lga chiqqani haqidagi xabar edi. 1927 yil 11 fevral kuni O‘zbekiston radioeshittirishlar efirga chiqqan sana hisoblanadi.

Quida “To‘lqinlar qanotida” kitobida keltirilgan birinchi kungi radioeshittirishning “programmasi”:

1. Tabriklar (soat 06:00 dan):

a. VKP (b) Markziy komitetning O‘rta Osiyo byurosi va Iqtisodiy kengash nomidan-15 minut;

b. O‘rta Osiyo harbiy okrugidan o‘toq Kuzmin-5 minut;

v. VLKSM Markaziy komitetning O‘rta Osiyo byurosidan o‘rtoq Sorokin-5 minut;

g. O‘zbekiston SSR hukumati nomidan o‘rtoq Mo‘minxo‘jayev-10 minut;

d. Matbuot vakili o‘rtoq Nodel-5 minut;

ye. Ilmiy jamiyat vakili o‘rtoq Shlegel-5 minut;

j. O‘rta Osiyo “Radio do‘stlari jamiyati” nomidan o‘rtoq Pereyashkin-5 minut.

2. Konsert bo‘limi.

Shunday qilib radio tarixidagi dastlabki kun efir dasturi o‘z nihoyasiga yetdi[2].

Albatta, har kim ham o‘zining shaxsiy radio moslamasiga egalik qilolmagan. Datlab radio moslamalari markazlarga, mahalla guzarlariga o‘rnatilgan. Stilistika yoki lingvistika nuqtayi nazaridan yondashsak, radioeshittirishlar ko‘tarinki ohangda, baland ovozda, o‘ta rasmiy va jiddiy ravishda efirga uzatilgan. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, boshqa qo‘shni yurtlar kabi, yuqoridagi aytib o‘tilgan uslub boshqa uslublarga almashtirilishini hayotni o‘zi taqozo etdi. Ulardan biri- til o‘yni uslubi.

Internet ham endi anchadan beri tehnologik yangilik emas. Har kim sayoramizning har qayerida misli ko‘rilmagan global information resurslarga hech qanday qiyinchiliksiz kirishga ega. Hech kimga endi sir emas, insonlarni internetda, tom ma‘noda, “yashashi”. Kimdir pul topadi, kimdir o‘yin o‘naydi, kimdir do‘stlari bilan suhbatlashadi va hokazo. Hamma o‘zini qiziqishlaridan kelib chiqib internetdan foydalanadi. Shuning uchun, shuni aytib o‘tish joizki, internet o‘ziga xos muloqot tilini dinamik ravishda rivojlantiryapti va shu jarayon umuman to‘htab qolyatgani yo‘q.

Rus tilini shiddat bilan rivojlanishi asrlar almashinuvida mediatekstda ham o‘z ta‘sirini o‘tkazdi, hoh u yozma bo‘lsin, hoh og‘zaki. Shuni aytib o‘tish kerakki, tadqiqotchilarni ko‘pchiligida bu fenomenga ancha qiziqishi ortdi va e‘tibori tortildi. Rus mediatekstdagi o‘zgarishlarni tahlil qilgan ko‘p sonli ishlar paydo bo‘ldi (T.G.Dobrosklonskaya, V.G. Kostomarov, G.Morev, I.V.Rogozina, O.B.Sirotinina, S.I.Smetanina va boshqalar). Tadqiqotchilarning fikricha, jurnalistlar, o‘zlarining chiqishlarida ko‘p hollarda nutqini expressivligini oshirish maqsadida zamonaviy mediatekstni eng yorqin xususiyatlaridan bo‘lib kelayotgan til o‘yinlaridan foydalanib kelmoqdalar[3].

Shunday qilib, tadqiqotning aktualigi shundaki, zamonaviy tele- va radiojurnalistikaning xarakterli belgilaridan biri bu-til o'nilarining o'rganishligining dolzarbligi va muhimligi.

Radio dasturlarni o'rganish maqsadida, quyidagi dasturlar tanlab olindi: "Zolotoy grammofon" va "Zolotoy grammofon-Yaroslavl", radiostantsiyalardan "Russkoye radio" va "Russkoye radio-Yaroslavl" (2005-2006 y.). Ushbu dasturlar mashhur bo'lgani uchun boshqa dasturlardan aynan shular tanlab olindi. Hamda, bu dasturlarni janrlari umuman bir biridan farq qiladi. Bu narsa esa, o'z navbatida til o'ynini faoliyatini janr bo'yicha har hil mediatekstlarda har tomonlama ko'rib chiqishni taqozo etadi hamda rus va xorijiy lingvistikada til o'nini nazariy o'rganish o'zini an'anasiga ega. Rossiyada bu muammo xx asrning 80-90 yillarda Yu.D.Apresyan, N.D.Arutyunova, T.V.Buligina, A.D.Shmeleva, E.A.Zemskaya, Ye.V.Paducheva, B.Yu.Norman, V.Z.Sannikova, T.A.Gridina va boshqalar ishlarida ayniqsa faol rivojlanish boshlandi. Zamonaviy lingvistlar uchun til o'ynini o'rganish maqsadida asosiy manba bu rus badiiy adabiyoti, folklor yumori, yaqin yillardan beri esa mashhur reklama tekstlari bo'lib kelgan, og'zaki nutq esa kamroq.

Ilmiy yangilik zamonaviy media makonida til o'yinlari fenomenining o'rnida yotadi va uning zamonaviy ommaviy axborot vositalarining o'yin diskursining shakllanishida. Til o'yinlari ko'p funktsional hisoblanib, u zamonaviy mediamatnda turli funktsiyalarni bajaradi: komik yoki qiziqchilikka oid, qiziqarli yoki qiziqishni oshiradigan, gedonistik, harakteorologik, fatik, atraktiv, kompressiv, ma'no yasovchi, emfatik, estetik, ekspressiv (ta'sir etuvchi), diskreditatsiya qiluvchi va baholovchi funktsiyalar[4].

Til o'yni o'zi nima degan savollga aniq javob olish uchun quyidagi aspektlarga alohida e'tibor qaratish lozim.

1. Zamonaviy mediamatnda jurnalistikani yangi turi paydo bo'ldi-"o'yin". O'yin jurnalistika matning eng xarakterli va dominant jihatlaridan biri bu- biz tomondan ikki jihatdan tushiniladigan til o'ynidir: 1) Til me'yorlarini buzmaganda holda lingvistik vositalardan maqsadli foydalanish orqali yaratilgan va nutqning ifodaliligini oshirish uchun ishlatiladigan til o'yini. 2) Til me'yoridan ongli ravishda chetga chiqilgan holatidagi til o'tini.

2. Birinchi holatda til o'yini-bu shaxsiy jurnalistikaning o'ziga xos hususiyati sifatida tekstning ekspressivligini oshirish, nutq individualligini shakllantirish uchun til birliklaridan o'ynoqi foydalanish.

3. Ikkinchi holatda til o'yini sifatida zamonaviy mediamatnda til normalarini tinglovchilar bilan pragmatic maqsadida ekspressiv fatik aloqani uzmaslik uchun maqsadli buzish nazarda tutiladi.

"Zolotoy grammofon" va "Zolotoy grammofon-Yaroslavl"ga kelsak, bu musiqaviy hit-paradlarda quyidagi tl o'yinini yaratishda qo'llanadigan usullar

ishlatilgan: kalambur (so‘z birikmalaridan komik usulida foydalanish, til birliklarini va uning qismlarini takror ishlatish, so‘zlarni ko‘p marotaba qaytarish, pretsedent matnlarni modifikatsiya (o‘zgartirish) qilish, qo‘shiq satrlarining o‘zgartirilgan iqtibosida qo‘shiq nomlarini o‘ynatish, musiqiy asarlarning assotsiativ-metaforik tasviri va qofiyalash. Leksik-semantik darajada alohida e‘tibor kalambur ishlatilganda birlklarni yaqinlasish texnikasiga qaratish kerak. Umuman olganda, ikkala dastur boshlovchilarining afzalliklari quyidagilardan iborat: ularning musiqali efirlaridagi eng ko‘p ishlatiladigan usullaridan bittasi bu- kalambur bo‘lib, u esa o‘z navbatida ism va nomlar anonimiyasiga asoslanadi.

A.Dovlatova va A.Malahov, asosan, zamonaviy ijrochilarning, “Oltin grammafon” ning bevosita ishtirokchilarining mashxur asarlarini o‘ynatadilar. Umumrus “oltin” hit-paradidan farqli o‘laroq, V.Ignatov “Zolotoy grammafonida” pretsedent matnlarni turli davrlar va musiqa janrlaridagi ijrochilari tomonidan yoshga ko‘ra turli xil tinglovchilarga yetkazishda o‘zgartirishlari keng tarqalgan. U tomonidan o‘zgartirilgan ashulalar ichidagi tsitatalari xilma xilligi bilan va ko‘p qirraliligi bilan ajralib turadi[5].

Bundan anglashiladiki, agar V. Ignatovga tegishli pretsedent matnlarini modifikatsiya qilinishida tinglovchilarning (adresatlarning) yuqori matn ajratish malakasini tan olish talab qilinsa, A.Malahov va A. Dovlatova tomonidan kotirovkadan foydalanishi ko‘pincha zamonaviy yoshlarda shu sohaga yaqin bo‘lgan asosiy bilimlarga ishora qilinadi.

Ushbu maqolani natijalarini umumlashtirib, shuni aytib o‘tish joizki, mazkur radiokomunikatsiya mavzusini dolzarbligi shundaki, u qaysi til bo‘lishidan qat’iy nazar, shu tilni rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shib kelayotganiga umuman shubhamiz yuq. Radio eshittirishlar jarayonida dastur boshlovchilari yoki ushbu sohada faol ish yuritayotgan jurnalistlar, tinglovchilarning sonini oshirish maqsadida, yuqorida aytib o‘tilgan lingvomadaniy nuqtayi nazardan kelib chiqib, radioaloqa sohasini yanada rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маслова В.А. Лингвокультуроология: учебное пособие. –М.2001.-С.164.
2. Rixsiyev B.I. To‘lqinlar kitobida.-Tashkent, 1965.-128b.
3. Добросклонская Т.Г. Медиалингвистика: системный подход к изучению языка СМИ: современная английская медиаречь.-М.: Флинта: Наука,2008.-263с.-библиогр.:С.257-261
4. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. – Москва,1995 – 472с.
5. Болотова Ж.И. Отечественное радиовещание в начале XXI века: новые реалии и старые проблемы//Вест.МГУ.-2004.Сер.Журналистика.№2.-6-20.;